

## NAVBAHOR TUMANIDA SAQLANIB QOLGAN TO‘Y MAROSIMLARI.

**Raxmonova Nigina Fazliddin qizi***Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti 1-bosqich talabasi***Annotatsiya**

*Mazkur maqolada Navbahor tumanida saqlanib kelayotgan urf-odatlar, to‘y marosimlari va boshqa saqlanib qolgan an‘analarni yoritildi.*

**Annotation**

*In this article, the customs, wedding ceremonies, and other preserved traditions that have been maintained in Navbahor district are highlighted.*

**Kalit so‘zlar:** *urf-odat, an‘ana, to‘y, „Sovchilikka borish“ „Non sindirish“, „Huybali“, „To‘qqiz to‘yi“, „Parcha bichar“*

**Keyword:** *custom, traditon, wedding, „Sovchilikka borish“ „Non sindirish“, „Huybali“, „To‘qqiz to‘yi“, „Parcha bichar“*

Hozirda o‘zbek yoshlari oldida turgan katta muammolardan biri qadriyat sifatida talqin etilayotgan urf -odatlarini inkor etib, zamon talabiga mos yashash bo‘lib kelmoqda. Ya‘ni qadriyatlarimizni eskilik sarqiti, kerak emas urf -odat, ortiqcha rasm -rusum sifatida qabul qilib chetdan kirib kelgan an‘analarni o‘zbeklashtirishga harakat qilinayotganiga guvoh bo‘lyapmiz. Oddiygina to‘y marosimini oladigan bo‘lsak eng pok va eng toza musulmon xalqi qadrlaydigan marosim -to‘y marosimidir. Azaldan bobo-buvilarimiz nikoh pok va buzib bo‘lmaydigan, Alloh tomonidan buyurilgan farz ekanligi xoh qiz farzand bo‘lsin xoh o‘g‘il farzand bo‘lsin yoshligidan uqtiriladi. Shuning uchun ham dunyodagi arjimler soniga nisbatan yurtimiz past ko‘rsatgichni ko‘rsatadi. Demak, bu milliy qadriyatlarimiz bilan bog‘liqdir.

**To‘y** — bazm tomosha va ziyofat bilan nishonlanadigan xalq marosimlari nomlaridan biri. Xalqimizda nikoh to‘yi, beshik to‘yi, xatna to‘yi, hovli to‘yi va boshqa turdagi to‘ylar o‘tkaziladi. To‘ylarni o‘tkazish jarayonida insonparvarlik, izzat-ikrom, mehribonlik, mehmonnavozlik, inoqlik kabi oliyjanob fazilatlar yorqin o‘z ifodasini topadi. O‘zbek xalqining eng mas‘uliyatli marosimlaridan biri nikoh to‘yi hisoblanadi. O‘zbek oilalari ko‘p farzandli bo‘lgani uchun o‘g‘il uylantirish, qiz uzatish marosimlari ularning bir umrlik orzu-umidlarining ro‘yobi sifatida tashkil etiladi. Tantanalarga boy bu marosimda quyidagi turli udumlar bajariladi.

**„Sovchilikka borish“.**

Sovchilikka borish o‘zbeklarda nozik masala hisoblanadi. Bo‘lajak kelinning aslinasli, yetti pushtiga qadar qarindosh-urug‘i, qo‘ni-qo‘shnilaridan surishtiriladi. Qiz so‘rab

borgan yigit tomon xalq orasida „qulchilikka keldik”, „sizda bir gul bor ekan ,bizda bulbul bor” ba’zi holatlarda „darvozaningizni supurgani keldik” deb maqsadlarini ham aytishadi. Sovchilikka borgan kishi so’zga boy, kelin tomonni ko’ndira oladigan xushmuomilali bo’lishi kerak. Sovchilikka borgan ayollar oilaning saranjom-sarishtaligi, uy-ro’zg’or tutishlariga alohida e’tibor berishadi. Navbahor tumanida qiz bolani uyiga 3 marotaba borishadi. Ayni shu yerda „Qizi borning nozi bor” maqoli asosida ish ko’riladi. Har ikki tomon murosaga kelsalar, yoshlar amma-yu xolalar yordamida uchrashtiriladi.

#### **„Non sindi” marosimi.**

Yoshlar bir-birlariga ma’qul kelsalar, sovchilar ikkita nonni sindirishadi. Shu bilan yoshlar boshi bir-biri bilan bog’lanadi. Unashtiruvdan so’ng fotiha tuyiga tayyorgarlik ko’riladi. Bu orada bo’lajak kuyov tomon kelinchakni bozorga olib chiqib boshdan oyoq kiyimlar olib beriladi. Kuyov bolaga sarpolarni qiz tomon olib beradi.

#### **„Parcha bichar”.**

Olingan sarpolar lazzatli taomlar to’la tog’orolar bilan qizni uyiga tantanali olib kelinadi. Olib berilgan sarpolar qizning qarindoshlariga, qo’ni-qo’shnilarga ko’rsatiladi. Ikki tomonning yoshi ulug’ onaxonlari atlas yoki adrasni olib 7 qarich qilib o’lchab kesadilar. Bu marosimda nikoh to’yi kuni sanasi belgilanadi. Shu bilan „Parcha bichar” marosimi tugatiladi.

#### **„Yakshanbalik oshi” yoki „Bayramlik”**

Nikoh marosimi belgilangan sana aytaylik, 2 oydan so’ng belgilangan bo’lsa, shu oraliqda nishonlayotgan bayram bo’lsa, qiz tomonga kuyov tomondan bayramlik dasturxonini olib kelinadi. Agarda bayram bo’lmasa, yakshanba kuni sovg’a-salomlar olib kelinadi.

#### **„To’qqiz to’yi”.**

Nikoh to’yi kuni yoki bir kun oldin kuyov tomondan qizning uyida to’y berish uchun to’yga qanday mahsulotlardan foydalanilsa, shu mahsulotlar yuboriladi. Qiz xonadonida el-yurtga osh beriladi.

#### **„Nikoh to’yi”.**

Kelin-kuyov sharafiga kuyov xonadonida o’tkaziladigan tantanali marosim nomi. Barcha xalqlarda bo’lganidek o’zbeklarda ham to’y katta shodiyona bilan o’tkaziladi. Kuyov taraf to’y dasturxonining to’kin-sochin bo’lishiga alohida e’tibor beradi. To’y kuni yoki bir kun oldin qizning uyida nikoh marosimi bo’lib o’tadi. Imom yoshlarga er-xotinlik burchi va huquqlarini tushuntiradi. Qizdan ham rozilik olingach „Xutbayi nikoh” o’qiladi.

#### **„Huybali”.**

Nikoh to’yi kuni kuyov jo’ralari hamrohligida karnay-surnay, childirma, „nog’oralar bilan 1 ta mash’ala ko’tarib keladi. Bu marosim „Huybali” deb nomlanadi. Kuyovning jo’ralari qizning ko’chasiga kirishi bilan mash’alani yoqib karnay-surnay jo’rligida „Huybali” deb

qizning uyi tomonga yurib kelishadi. Yetib kelishgach o’sha yoqilgan mash’aladan qizning uyi oldida olov hosil qilishib, kuyovni olov atrofida aylantirishib, qizning oldiga kirgi zib yuborishadi. Qizning uyida ham chimildiq qoqilib bu yerda ham ajdoddan avlodlarga o’tayotgan bir nechta marosimlar o’tkaziladi.

Inson zotini qadrlash, hurmatlash va ulug‘lashda „**To‘ylar**” beqiyos qiymatga ega. To‘y bir kishining shaxsiy ishi bo‘lmay, u keng jamoatchilik tashabbusi va ishtiroki bilan o‘tadigan tantanadir. Shuning uchun „**To‘ylar**”ni zamon talabi darajasiga ko‘tarish doimo muhim hisoblanadi. To‘ylarni o‘ziga xos bayram tarzida tashkil etish, ularni har tomonlama tartibga solish, ixchamlashtirish, ayniqsa, badiiy jihatdan boyitish hozirgi davr talabidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Internet materiallari.
2. Wikipediya.
3. Jo‘rayev M. „O‘zbek mavsumiy marosim folklori: Fan, 2008-224-bet-Toshkent.